XALQ DEPUTATLARI YANGIYO‘L SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-2-018-10-196-K/24 Yangiyo‘l shahar

Yangiyo‘l shahrining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04/445-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **74 123 750,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **74 123 750,0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **302 218,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda shahar mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 196 537,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek

ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlarga muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **6-ilova**ga muvofiq;

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **7-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Shahar xalq deputatlari Kengashlariga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **8-ilova**ga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq.

6. Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **11-ilova**ga muvofiq.

7. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Isanbayev, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Mirzaraximov), shahar soliq inspeksiyasi (R.Boboyev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (G.Sultanova) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Isanbayev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



RAXIMOV SHUXRAT SUNNATOVICH

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	11 464 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 663 850
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 125 000
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	4 176 900
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 206 000
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 125 000
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 739 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 954 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 331 000
10	Davlat ulushi bo‘yicha dividentlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	6 093 000
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	246 000
JAMI		**74 123 750**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yil uchun Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori** (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**74 123 750**
1	Maorif	20 260 093
	maktabgacha ta’lim tashkilotlari	8 916 517
	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	7 679 391
	shundan	
	mening maktabim	*722 244*
	22-son musiqa maktabi	3 664 185
2	Madaniyat bo‘limi	934 353
3	U.Yusupov memorial uy muzeyi	292 631
4	Sport maktabi	3 424 429
5	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 040 278
6	Veterinariya qo‘mitasi	713 043
7	Hokimiyat	26 860 405
	shundan	
	shahar hokimligi	*2 219 463*
	mahalla budjeti jamg‘armasi	*777 605*
	ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*255 792*
	fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*18 731 067*
	zahira jamg‘armasi	*1 196 537*
	hokim yordamchilari	*2 414 882*
	xotin qizlar faoli	*995 554*
	ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*16 849*
	Xalq deputatlar kotibiyati	*252 656*
8	Yoshlar ishlar agentligi	2 927 719
9	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 332 827
10	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 669 951
11	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	161 986
12	Axborot kutubxona markazi	506 035

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Aylanma dan soliq
		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	
1	Yangiyo‘l shahri	0%	29%	0%	90%	0%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	100%

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Yangiyo‘l shahar mahalla fuqarolari yig‘inlari kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Baxt MFY	1.0	56 980	1.2	614.88
2	Ishchilar shaxarchasi MFY	1.0	56 980	1.0	512.4
3	Qovunchitepa MFY	1.05	59 570	1.2	614.88
4	Lazzat MFY	1.05	59 570	1.2	614.88
5	Mevazor MFY	1.05	59 570	1.2	614.88
6	Mezon MFY	1.05	59 570	1.2	614.88
7	Mustakillik MFY	1.05	59 570	1.1	563.64
8	Navro‘z MFY	1.09	62 160	1.2	614.88
9	Olmos MFY	1.0	56 980	1.0	512.4
10	Oltinobod MFY	1.05	59 570	1.1	563.64
11	Ramadon MFY	1.05	59 570	1.2	614.88
12	Sabo MFY	1.0	56 980	1.0	512.4
13	Turkiston MFY	1.05	59 570	1.1	563.64
14	Fayzli MFY	1.05	59 570	1.1	563.64
15	Fayzobod MFY	1.0	56 980	1.0	512.4
16	Farovon MFY	1.05	59 570	1.1	563.64
17	Yangi bog‘ MFY	1.0	56 980	1.0	512.4
18	Yangiobod MFY	1.0	56 980	1.1	563.64
19	Nov MFY	1.0	56 980	1.0	512.4

20	Bog‘bon MFY	1.0	56 980	1.0	512.4
21	Baxor MFY	1.0	56 980	1.2	614.88
22	Yangi hayot MFY	1.0	56 980	1.0	512.4

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	**Hudud nomi**	**Koeffitsient**	**Mutloq miqdor** *(so‘mda)*
1	Yangiyo‘l shahri	1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2025 yilga belgilangan koeffitsientlari

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari
1	Yangiyo‘l shahri	1,10	1,10	1,10	1,10	1,00

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025 yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob maxsulotlari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
1	Yangiyo‘l shahri	600,00	200,00	200,00	200,00	200,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Hudud nomi**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Yangiyo‘l shahri	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	**Hudud nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Yangiyo‘l shahri	1,25	1,15	1,15	1,25	1,25	1,25	1,25

* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

ming.so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i,** ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025 yil minimal qiymat	koefis-ient	2025 yil stavka	2025 yil minimal qiymat	koefis-ient	2025 yil stavka
1	Yangiyo‘l shahri	5,50	1,30	7,15	11,00	1,30	14,30

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-018-10-196-K/24 -son qaroriga
11-ilova

2025-yilda shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming.so‘mda

№	Hudud nomi	2025-yil
1	Yangiyo‘l shahri	302 218